
Navbatdagi sayyor qabul 3-sektor hududida o'tkazildi

Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan "Yormozor" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 30-maktabda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Unda hokim o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasining Farg'ona shahar bo'limi mudiri G'ayratjon Pattayevlar ham ishtirok etishdi.

Qabul davomida 60 nafardan ortiq jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlar, mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirmadan ortiq moddiy yordam ajratish, ichimlik suvi tarmog'ini tortish, doimiy ishga joylashish kabi murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha belgilangan tartibda o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shuningdek, qabul so'ngida o'tgan sayyor qabullar davomida tushgan murojaatlarning ijobiy hal etilish darajasi ham muhokama etildi.

2022-07-06 11:52:20